

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YUKLARNI TASHISH QOIDALARINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

“Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunlarning hovolaki normalarini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2013-yil 15-iyuldagい PQ-2003-son [qarorini](#) bajarish yuzasidan, shuningdek avtomobil transporti faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalari [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin va 2015-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilsin.
2. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalari talablari idoraviy mansub tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rsinlar.
3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rribosari B.I. Zakirov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOEV

Toshkent sh.,
2014-yil 1-avgust,
213-son

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 1-avgustdagи 213-son [qaroriga](#)
ILLOVA

O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish QOIDALARI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Qoidalar “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq avtomobil transportida tashish jarayoni qatnashchilarining o‘zaro munosabatlarini, ularning huquqlari, majburiyatları va javobgarligini tartibga soladi, shuningdek yuklarni tashishga, ularning saqlanishiga qo‘yiladigan talablarni va O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashishning boshqa shart-sharoitlarini belgilaydi.

Ushbu Qoidalarning amal qilishi fuqarolarga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini qo‘llagan holda shaxsiy ehtiyojlar uchun ular tomonidan bajariladigan yuklarni tashishga tatbiq etilmaydi.

Avtomobil transportida xavfli, yirik gabaritli va og‘ir yuklarni tashish xususiyatlari alohida normativ-huquqiy hujjatlardan bilan belgilanadi.

2. Yuklarni temir yo‘l, dengiz, daryo, havo transporti va transportning boshqa turlari bilan o‘zaro hamkorlikda avtomobil transportida tashishda yuzaga keladigan munosabatlar va bunday tashishni tashkil etish tartibi tashuvchilar o‘rtasida tuziladigan bitimlar bilan tartibga solinadi.

3. Bojxona nazorati ostidagi yuklarni tashish O‘zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Yuklarni avtomobilda xalqaro tashishlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi.

5. Ushbu Qoidalarda quyidagi atamalar va tushunchalar qo‘llaniladi:

tashish shartnomasi — u bo‘yicha tashuvchi unga yukni jo‘natuvchi tomonidan ishonib topshirilgan yukni borish punktiga yetkazib berish va uni yukni olishga vakil qilingan shaxsga (yukni oluvchiga) topshirish majburiyatini olgan, yukni jo‘natuvchi esa yuk tashilganligi uchun belgilangan to‘lovnii to‘lash majburiyatini olgan bitim;

haydovchi — tashuvchining vakili hisoblangan va avtotransport vositasini boshqarish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

yukni jo‘natuvchi — yukning mulkdori nomidan ish ko‘rvuchi yoki tashish shartnomasi bo‘yicha yukning mulkdori hisoblangan jismoniy yoki yuridik shaxs;

yukni oluvchi — yukni olishga vakolat berilgan va yukka doir ilova hujjatlarda ko‘rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

yuk — yukni oluvchiga berish uchun yukni jo‘natuvchidan tashishga qabul qilib olingan moddiy boyliklar. Yuk tovardan va taradan iborat bo‘ladi. Yukning sof og‘irligi “netto”, taraning og‘irligi — tara, tara bilan birgalikda tovarning umumiyyat og‘irligi “brutto” deb ataladi;

yuk o‘rni — avtomobil transportiga yuklashda yoki tushirishda uni tashish yoki yukni oluvchiga topshirish uchun qabul qilish uchun yukning shartli birligi;

mijoz — yukni jo‘natuvchi, yukni oluvchi, ekspeditor;

tirkama — avtotransport vositasi tomonidan shatakkala olinadigan va o‘z energiya manbaiga ega bo‘limgan yuklarni tashish uchun xizmat qiladigan avtotransport vositasi;

tirkama aravalari — uzun o‘lchamli yuklarni tashish uchun qo‘llaniladigan tirkamaning bir turi;

yarimtirkama — to‘liq massasining bir qismi o‘tirg‘ich qurilmasi orqali o‘tirgich shatakkiga beriladigan tirkamaning bir turi;

paket — taglikda yoki uningsiz bitta yirik joyga shakllantirilgan va mexanizatsiyalashtirilgan usulda yuklash, joyni o‘zgartirish va tushirish bo‘yicha operatsiyalarini bajarish imkonini beradigan mayda tarali yoki tarasiz donali yuklar turkumi;

tashuvchi — mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda avtotransport vositasiga egalik qiluvchi, yuklarni tashish bo‘yicha tijorat asosida xizmatlar ko‘rsatuvchi va bunga litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

tagliklar — ayri yuklagichlar va kranlar yordamida ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalash uchun moslama, ko‘p martalik tara hisoblanadi;

yo‘l varaqasi — avtotransport vositasining ishini aniqlash va hisobga olish uchun belgilangan namunadagi yuridik hujjat;

tez buziladigan yuklar — ularni saqlash uchun tashishda maxsus harorat va sanitariya-gigiyena rejimlariga rioya etish talab qilinadigan yuklar;

tara — o‘rab-joylashtirishning asosiy elementi, u o‘zida tashishda, saqlashda va ortish-tushirish operatsiyalarida mahsulotlar va tovarlarni joylashtirish va ularning saqlanishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan buyumni ifodalaydi;

konteyner — kamida 1 m³ hajmli, tovarlarni tarasiz, birlamchi o‘ramda yoki yengillashtirgan tarada tashish uchun mo‘ljallangan ko‘p martalab foydalaniladigan tara;

o‘rab-joylashtirish — unga solingan mahsulotlar va tovarlardan ajratilmaydigan, ularning zarur anjomi hisoblangan va unda mahsulotlar va tovarlarni saqlash hamda ularning sifat va miqdor jihatidan saqlanishini ta’minlash uchun xizmat qiladigan buyum;

tovar-transport yukxati — transport jarayonining qatnashchilari uchun yagona bo‘lgan, tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarishga, ularni yo‘lda hisobga olishga, kirim qilishga, ombor, tezkor va buxgalteriya hisobi uchun, shuningdek yuk tashilganligi uchun hisob-kitob qilish va bajarilgan ishning hisobini yuritish uchun mo‘ljallangan hujjat.

6. Yo‘l varaqalari va yuklarni avtomobil transportida tashishga tegishli boshqa hujjatlarning (yuklarni tashish masofalarini o‘lchash dalolatnomalarini rasmiylashtirish bo‘yicha nizomlar, yo‘riqnomalar, metodik qo‘llanmalar) shakllari namunalari O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

II. Tashishning umumiyyat shartlari

7. Avtomobil transportida yuklarni tashish tashish shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Tashuvchi yukni tashish shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda yetkazib berishi kerak. Yukni yetkazib berish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilishi davriga ko‘paytirilishi yoki tomonlarning ikki tomonlama bitimi bo‘yicha uzaytirilishi mumkin. Yukni yetkazib berish kechiktirilishi to‘g‘risida kechikishning sabablari va vaqtি ko‘rsatilgan holda yo‘l varaqasiga belgi qo‘yiladi.

8. Yuklar tashilganligi uchun, agar qonun hujjatlarida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, tashish shartnomasida belgilangan to‘lov undiriladi.

9. Tashuvchi, agar qonun hujjatlarida, tashish shartnomasida o‘zgacha hol belgilanmagan bo‘lsa, yoki majburiyatlarning mohiyatidan kelib chiqmasa unga tegishli bo‘lgan tashish to‘lovini va tashish bo‘yicha boshqa to‘lovlarni ta‘minlash uchun tashish uchun unga berilgan yukni ushlab turish huquqiga ega.

10. Tashuvchi, agar tashish shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, tashish shartnomasini bajarish uchun zarur bo‘lgan avtotransport vositalarining tiplari va sonini mustaqil belgilaydi.

Tashuvchi yukni tashish shartnomasida belgilangan muddatda tegishli yukni tashish uchun yaroqli holatdagi soz avtotransport vositasini yukni jo‘natuvchiga yukni ortish uchun beradi, yukni jo‘natuvchi esa yukni belgilangan muddatlarda tashuvchiga taqdim etadi.

11. Agar mijozni tashuvchi tomonidan berilgan avtotransport vositasi qoniqtirmasa, u holda u tegishli dalolatnomani tuzib va uni tashuvchiga berib avtotransport vositasini rad etishga haqlidir.

12. Yukni jo‘natuvchi tomonidan tashishga yaroqli bo‘lmagan holatda taqdim etilgan va uni o‘z vaqtida jo‘natishni ta‘minlaydigan muddatda yukni jo‘natuvchi tomonidan zarur holatga keltirilmagan yuk taqdim etilmagan deb hisoblanadi.

13. Agar tashuvchi quyidagi holatlar bo‘yicha tashishda uning saqlanishini ta‘minlay olmasa, tashuvchi yukni tashish uchun qabul qilishni rad etishi mumkin:

yuk zarur tarzda bo‘lmagan tarada yoki o‘ramda taqdim etilgan;

yuk bajarish uchun yuklarni tashishga qabul qilingan buyurtmanomaga muvofiq emas;

yukning taqdim etilgan turkumi massasi avtotransport vositasining yuk ko‘tarishidan ortiq;

yuk tashish yo‘nalishining avtomobil yo‘li bo‘ylab harakat vaqtincha to‘xtatilishi yoki cheklanishi tufayli yetkazib berilishi mumkin emas.

14. Agar:

bunday tashish qonun hujjatlarida taqiqlangan bo‘lsa;

tovar xususiyatiga ega bo‘lgan yuklar tovar-transport yukxatlari bilan rasmiylashtirilmagan bo‘lsa;

tashish uchun taqdim etilgan yuklarning har xil tiplari o‘z xossalari ko‘ra bir avtotransport vositasida birgalikda tashishga qo‘yilmasa;

yuk yo‘l harakati xavfsizligiga xavf solsa va Yo‘l harakati qoidalari talablariga javob bermasa yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) yukni taqdim etmasligi, tashuvchi esa yukni tashish uchun qabul qilmasligi kerak.

15. Yukni jo‘natuvchi yuklarni tashishga taqdim etishda narxni e’lon qilishga haqlidir.

Yukning e’lon qilingan qiymati miqdori tashuvchida shubha uyg‘otgan taqdirda u o‘z hisobidan shartnomasi asosida ekspertlarni jalb etishi va yukning real qiymati to‘g‘risida dalolatnomasi tuzishi mumkin.

16. Qiymati e’lon qilingan yuk tashishga taqdim etilganda yukni jo‘natuvchi uch nusxada yuk o‘rinlari ro‘yxatini tuzishga majburdir. Ro‘yxatning bir nusxasi yukni jo‘natuvchida, ikkinchi nusxasi — tashuvchida qoladi, uchinchi nusxasi — yukni jo‘natuvchi tomonidan yuk o‘rnining ichkarisiga qo‘yiladi.

17. Yuklarni qabul qilish-topshirishda tovar-transport yukxatida ushbu yuklarning yuk o‘rinlari massasi va soni (imkoniyati bo‘lsa sanab) ko‘rsatiladi.

U bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarning harakati hisobi yuritilmaydigan yukni tashish erkin shakldagi buyurtma-naryad asosida amalga oshirilishi mumkin. Har xil avtotransport vositalarida tashilishi kerak bo‘lgan yuk ortilgan taqdirda foydalilaniladigan avtotransport vositalari soniga muvofiq bo‘lgan miqdorda buyurtmalar-naryadlar tuziladi.

18. Tarali va donali yuklar massasi yukni jo‘natuvchi tomonidan ular tashishga taqdim etilgunga qadar belgilanadi va yuk o‘rinlariga tamg‘a bosishda ko‘rsatiladi. Ushbu yuklarni tashishda bir avtotransport vositasida tashiladigan yukning butun turkumining umumiy massasi tarozida tortish orqali yoki yuk o‘rinlarining barcha massasini sanab chiqish yo‘li bilan belgilanadi. Yuklarning ayrim turlari uchun massa o‘lhash yoki hajmli massa bo‘yicha hisoblab chiqish yo‘li bilan aniqlanishi mumkin.

19. Yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tovar-transport yukxatida yukning massasini va, agar massa to‘g‘ridan to‘g‘ritortish orqali aniqlanmasa, uni aniqlash usullarini ko‘rsatishi kerak.

20. Yuklar yopiq avtotransport vositasida yoki yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tomonidan tamg‘alangan alohida seksiyalar, konteynerlar yoki sisternalarda tashilganda, yukning massasi yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tomonidan aniqlanadi.

21. Notovar xususiyatga ega bo‘lgan yuk massasini aniqlashda yukni jo‘natuvchi tortish yo‘li bilan bir rusumdagи bir necha avtotransport vositalarini nazorat tartibida tarozida tortishi mumkin, shundan keyin yukning umumiy massasini avtotransport vositalari soniga bo‘lish yo‘li bilan bir avtotransport vositasidagi yukning o‘rtacha massasini aniqlash mumkin.

22. Agar tashish uchun taqdim etilgan yukning tarasi yoki o‘ramini tashqi tomondan ko‘zdan kechirishda tashuvchi tomonidan yukning yo‘qotilishiga, buzilishiga yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan nuqsonlar aniqlansa, yukni jo‘natuvchi nuqsonlarni bartaraf etishi yoki tashishda yukning saqlanishini ta‘minlaydigan boshqa ishlarni bajarishi kerak.

23. Yukni jo‘natuvchi tomonidan tashish uchun taqdim etilgan yukning massasi avtotransport vositasining nominal yuk ko‘tarishidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

24. Yukning massasi yoki sonini aniqlash yukni jo‘natuvchi va yukni oluvchi tomonidan bir xil usulda amalga oshiriladi. Tashish uchun yukni qabul qilishda massani aniqlash uchun butun yukni tarozida tortish zarur. Yukning alohida qismlarini tortish orqali yukning umumiy massasini aniqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

25. Sisterna kuzovli avtotransport vositalarida tashiladigan to‘kiladigan va uyuladigan yuklar, shuningdek quyib tashiladigan oziq-ovqat yuklari massasi avtotransport vositalarini tashish uchun mo‘ljallangan turg‘un tarozilarda aniqlanadi.

26. To‘kiladigan, uyuladigan va quyuladigan yuklarni tashish oldidan avtotransport vositasining massasi tekshiriladi.

27. Yuklarni avtomobillar tortiladigan tarozilarda tortish yukning massasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi, tortish mijoz bilan tashuvchi o‘rtasidagi kelishuv bo‘yicha amalga oshiriladi.

28. Avtopoyezdlarni tortishda butun avtopoyezdni taroziga o‘rnatish zarur. Agar platformaning o‘lchami butun avtopoyezdni o‘rnatish imkonini bermasa, shatakchi va tirkama alohida tortiladi.

29. Katta o‘lchamli va uzun yuklarni tortishda yuklarning quiyi uchlari tarozilarning harakatlanmaydigan qismlaridan (staninalar, ustunlar) yoki bog‘lovchi romdan tashqarida turmasligi kerak.

30. Yuklarni tarada, o‘ramda yoki mayda turkumlar bilan tashishga tayyorlashda yukni jo‘natuvchi har bir yuk o‘rnini markalashga haqlidir.

Yukka tovar-transport yukxatlaridagi ma‘lumotlar markalashga muvofiq bo‘lishi kerak.

Yukning xossalari ko‘rsatish va yuklarni ortish (tushirish), tashish yoki saqlashning maxsus qoidalariga rioya qilish zarur bo‘lganda yukni jo‘natuvchi maxsus markalanishi kerak.

31. Markalaydigan yorliqlar qog‘oz, karton, mato, metall yoki plastmassadan tayyorlanishi mumkin hamda eng qulay, yaxshi ko‘riladigan joylarda taraga ishonzchli mahkamlangan bo‘lishi kerak.

32. Bir necha yukni oluvchilar manziliga yetkazib beriladigan sim chiviqlar, quvurlar yoki boshqa katta o‘lchamli buyumlarni tashishda ushbu buyumlarning oxiri moyli bo‘yoqda markalanishiga yo‘l qo‘yiladi.

33. Uyulgan, to‘kilgan yoki quyilgan holda ortiladigan va tushiriladigan yuklarni tashishda markirovka qilinmaydi.

34. Yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) furgon tipidagi kuzovli avtotransport vositasini, bir yuk oluvchiga yetkazib beriladigan konteynerlarni tamg‘alashga, yashchiklar, qutilar va boshqa taradagi mayda donali tovarlarni esa tamg‘alashga yoki banderol qilishga haqlidir.

Yuklarni banderol qilish o‘ramning yaxlitligini buzmasdan yukka yaqinlashishni istisno etishi kerak.

Yukni tamg‘alash yoki banderol qilish holati tovar-transport yukxatida qayd etiladi.

35. Bir necha manzillar bo‘yicha tashiladigan yukning saqlanishini ta’minlash uchun tashuvchi kuzovni alohida tamg‘alanadigan seksiyalarga bo‘lish imkonini beradigan to‘silalar o‘rnatishi mumkin.

36. Yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tomonidan tamg‘alangan yuk tashuvchi tomonidan yukni oluvchiga yukning massasi, holati va yuk o‘rnlari soni tekshirilmasdan topshiriladi.

37. Kuzovni tamg‘alash tamg‘aning yaxlitligini buzmasdan yukka yaqinlashish va avtotransport vositasi kuzovi, konteyner, seksiya yoki alohida yuk o‘rnining tamg‘asini olib tashlash imkonini berilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

38. Yukni avtotransport vositasiga ortish, shuningdek uni mahkamlash, to‘sish, bog‘lash, tushirish, mahkamlagichlar, qoplamalarni olib tashlash, bortlarni (sisternalarning qopqoqli tuynuklarini) yopish va ochish, shlanglarni tushirish va chiqarib olish, shlanglarning vintlarini burash yoki orqaga burash, agar tashish shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, yukni jo‘natuvchi (yukni oluvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

39. Tashuvchi yukni jo‘natuvchi (yukni oluvchi) bilan kelishuv bo‘yicha ortish-tushirish ishlarini bajarishni o‘z zimmasiga olishi mumkin.

40. Yuklar avtotransport vositasi kuzovida tashish vaqtida yukning o‘rami va avtotransport vositasi saqlanishi ta’minlanadigan tarzda joylashtirilishi va mahkamlanishi kerak.

41. Yukni jo‘natuvchi (ekspeditor), yukni oluvchi, agar tashish shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, ortish, tashish va tushirish uchun zarur bo‘lgan moslamalar va yordamchi materiallarni taqdim etishi, o‘rnatishi va olib tashlashi kerak.

42. Mijozga tegishli bo‘lgan barcha moslamalar tashuvchi tomonidan tushirish punktida yuk bilan birgalikda yukni oluvchiga beriladi yoki tashish shartnomasiga muvofiq ortish punktiga yoki boshqa joyga qaytariladi.

43. Tashuvchi tomonidan avtotransport vositasida yukni taxlash yoki mahkamlash yo‘l harakati xavfsizligi yoki yuk va/yoki avtotransport vositasi saqlanishini ta’minlash talablariga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda tashuvchi mijozni bundan xabardor qilishi va, agar tashish shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, aniqlangan kamchiliklar mijoz tomonidan bartaraf etilguniga qadar tashishni bajarishni to‘xtatishi kerak.

44. Tashuvchining avtotransport vositasi yuklash uchun kelish vaqt ortish punktida tegishli belgi qo‘yilgan yo‘l varaqasi yukni jo‘natuvchiga (ekspeditorga) taqdim etilgan paytdan boshlab, tashuvchining avtotransport vositasi ortish uchun kelgan vaqt esa — tovar transport yukxati va tushirish punktlariga kelganlik to‘g‘risidagi tegishli belgi qo‘yilgan yo‘l varaqasi yukni oluvchiga taqdim etilgan paytdan boshlab hisoblanadi.

45. Agar haydovchi yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tomonidan rasmiylashtirilgan tovar-transport yukxatini olgan bo‘lsa va yuk avtotransport vositasining yuk bo‘linmasida turgan bo‘lsa, tashuvchining avtotransport vositasini yuklash tugallangan deb hisoblanadi.

46. Yuk yuk bo‘linmasidan to‘liq tushirilganda, yuk bo‘linmasini tozalash bo‘yicha barcha zarur ishlar bajarilganda va yuk olinganligi to‘g‘risida yukni oluvchining belgisi qo‘yilgan tovar-transport yukxatlari haydovchiga topshirilganda avtotransport vositasidan yukni tushirish tugallangan deb hisoblanadi.

Yuklar tushirilgandan keyin avtotransport vositalari va konteynerlar ushbu yuklarning qoldiqlaridan tozalanadi, ushbu bandda sanab o‘tilgan ayrim yuklar tashilgandan keyin esa avtotransport vositalari va konteynerlar yuvilishi va zaruriyat bo‘lganda — bo‘lak-bo‘lak va maydalangan alebaster; asbest; barit (og‘ir shpat); mineral momiq paxta; sabzavot sharbati; gaja (gipsli ohakgil); gips; glina; alyuminiy oksidi; dolomit; grafit; vannalar uchun mineral loylar; ozuqa xamirturushlari (gidroliz sulfat); kartoshka va lavlagi qoldig‘i; kul; ohaktosh; kaolin; asbest karton;

g‘isht; koagulyantlar; omixta em; apatit konsentrati; nefelin konsentrati; bo‘yoqlar va quruq bo‘yoqlar; yormalar (iste‘mol o‘rami shikastlanganda); bo‘r, merteli; un; rangli metallar qipiqlari; chiqindilar; pegmatit; asfalt, ohaktosh, metallurgiya magneziti, shamot (olovbardosh) kukunlari; chang; sigaretlar (papiroslar) (iste‘mol o‘rami shikastlanganda); tuz; kukunsimon yuvuvchi vositalar; texnik va qurilish shishasi (singan taqdirda); rangli metallar va ularning qotishmalari qirindilar; sulfatlar, xavflilaridan tashqari, tamaki va moxorka xomashyosi; tamaki (barglardan va ildizlardan hidlanadigan ishlov berilgan); yanchilgan va ildizlardagi talk (talkli tosh); shisha tara (singan taqdirda); torf va torf mahsulotlari; o‘g‘itlar; quritilgan go‘sht qiymasi (qoplarda); ferroqotishmalar; sement; bo‘lak-bo‘lak shamot; taxtakunjara; tez buziladigan yuklar; hayvonlar va parrandalar dezinfeksiya qilinishi kerak.

Avtotransport vositalari va konteynerlarni tozalash, yuvish va dezinfeksiyalash majburiyati yukni oluvchilarga tegishlidir. Tashuvchi yukni oluvchi bilan kelishgan holda avtotransport vositalari va konteynerlarni yuvish va dezinfeksiyalash ishlarini bajarishni o‘z zimmasiga olishga haqlidir.

47. Tovar va notovar xususiyatga ega bo‘lgan yuklarni tashish tovar-transport yukxati bilan rasmiylashtirilishi kerak.

48. Yuk ortiladigan avtotransport vositasining tovar-transport yukxatlari va yo‘l varaqalari qat’iy hisobot beriladigan hujjatlar hisoblanadi, matbaa usulida tayyorланади, hisobga olish seriyasi va tartib raqamiga ega bo‘ladi.

49. Tovar-transport yukxati belgilangan tartibda yukni jo‘natuvchi tomonidan har bir borishga har bir yukni oluvchining nomiga alohida to‘rt nusxada tuziladi, ulardan:

birinchi nusxa yukni jo‘natuvchida qoladi va tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarishni (zararni) hisobga olish uchun mo‘ljallanadi;

ikkinchi nusxa yukni oluvchiga beriladi va u tomonidan moddiy boyliklar kirim qilinishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

uchinchchi va to‘rtinchi nusxalar tashuvchiga beriladi hamda tashuvchining mijoz bilan hisobkitob qilishi va avtotransport ishini hisobga olish uchun xizmat qiladi.

50. Ko‘p miqdordagi tovar-moddiy boyliklar tashish uchun bir vaqtning o‘zida taqdim etilganda qo‘srimcha varaqani — barcha qo‘srimcha varaqalarda tovar bo‘limida ko‘rsatilgan tovar-transport yukxatining bosh varaqasi seriyasi va tartib raqami takrorlangan holda to‘rt nusxada to‘ldiriladigan tovar-transport yukxatining davomini qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

51. Bir yukni jo‘natuvchidan bir yukni oluvchining manziliga aynan bir xil masofada bir necha marta borishni talab etadigan bir xildagi yuklarni tashish smena mobaynida avtotransport vositasi tomonidan bajarilgan barcha ishga jamlangan holda bitta tovar-transport yukxati bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda oraliq borishlarni rasmiylashtirish yukni jo‘natuvchi tomonidan haydovchiga har bir alohida borishga talon berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Talon faqat berilgan kun uchun haqiqiydir va uch nusxada to‘ldiriladi, ulardan bir nusxasi yukni jo‘natuvchida, ikkinchi nusxasi — haydovchida va uchinchi nusxasi yukni oluvchida qoladi.

52. Haydovchi (yoki yukka hamrohlik qiluvchi shaxs) yukni tovar-transport yukxatida ko‘rsatilgan yukni oluvchiga topshirishi kerak.

53. Yukni yukni oluvchiga massa va o‘rinlar soni bo‘yicha topshirish yuk yukni oluvchidan qabul qilingan tartibda amalga oshiriladi (tarozida tortish, o‘lchash, yuk o‘rinlarini sanab chiqish va shu kabilar).

54. Shikastlanmagan konteynerlar, sisternalarda kelgan va yukni jo‘natuvchining shikastlanmagan tamg‘alariga ega bo‘lgan yuklar yukni oluvchiga yukning massasi, holati va yuk o‘rinlari soni tekshirilmasdan beriladi.

Yuk yukni oluvchiga shikastlangan tarada, avtotransport vositasining shikastlangan kuzovida yoki yukni jo‘natuvchining shikastlangan tamg‘alari bilan kelgan taqdirda, tashuvchi tovar-transport yukxatiga muvofiq yuk o‘rinlarining massasini, sonini yoki yukning holatini tekshirishi kerak.

55. Standart og‘irlilik va mijoz tomonidan har bir yuk o‘rnida ko‘rsatilgan og‘irlilik bo‘yicha tashish uchun qabul qilingan taradagi va donali yuklar borish punktida yukni oluvchiga o‘rinlar hisobi

bo'yicha tortilmasdan, faqat shikastlangan o'rnillardagi (agar shunday bo'lsa) yukning og'irligi va holatini tekshirgan holda topshiriladi.

Uyulgan va to'kilgan holda tashiladigan, kamomad belgilarisiz kelgan yuklar yukni oluvchiga og'irlikni tekshirmasdan topshirilishi mumkin.

56. Tashuvchining qayta yo'naltirish, yukni realizatsiya qilish yoki uni yukni jo'natuvchiga qaytarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlari mijoz tomonidan tashish shartnomasi shartlariga muvofiq to'lanadi.

57. Tashuvchiga bog'liq bo'lмаган sabablar bo'yicha yukni oluvchi yukni qabul qilishni rad etgan taqdirda, yuk tashuvchi tomonidan yukni jo'natuvchiga (agar tashish shartnomasida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa) qaytarilishi yoki uning yozma ko'rsatmasi bo'yicha boshqa yukni oluvchiga berilishi mumkin. Yukni oluvchi, agar u yuridik shaxs hisoblansa, tovar-transport yukxatiga imzo, shuningdek muhr bilan tasdiqlangan yuk qabul qilinishi rad etilganligi to'g'risidagi yozuvni qayd etishi kerak.

58. Yukni qayta yo'naltirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) haydovchi aloqa vositalaridan foydalangan holda tashuvchini yukni oluvchi yukni qabul qilishni rad etgan sana, vaqt va sabablari to'g'risida xabardor qiladi;

b) tashuvchi yozma shaklda yoxud aloqa vositalaridan foydalangan holda yukni jo'natuvchini yukni oluvchi yukni qabul qilishni rad etganligi va sabablari to'g'risida xabardor qiladi va yukni qayta yo'naltirish haqidagi ko'rsatmani so'raydi;

v) yukni jo'natuvchi yukni yetkazib berish mumkin emasligi to'g'risida xabardor qilingan paytdan boshlab 2 soat mobaynida undan qayta yo'naltirish to'g'risida bildirishnoma olinmagan taqdirda tashuvchi yozma shaklda yukni jo'natuvchini yuk qaytganligi to'g'risida xabardor qiladi va haydovchiga yukni jo'natuvchiga qaytarish to'g'risida ko'rsatma beradi;

g) yukni jo'natuvchidan tovar-transport yukxatida ko'rsatilgan yukni oluvchigacha yetkazib bergen holda yukni qayta yo'naltirish to'g'risida ko'rsatma olinganda tashuvchi aloqa vositalaridan foydalangan holda haydovchini qayta yo'naltirish to'g'risida xabardor qiladi.

III. Yuklarning ayrim turlarini tashish xususiyatlari

1. Umumiy shartlar

59. Yuklarning ayrim turlarini tashishda ularning xossalardan, gabaritlari va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib:

tashuvchi haydovchi texnika xavfsizligi, yong'inga qarshi xavfsizlik, yo'l harakati xavfsizligi, yuklarni qabul qilish va yetkazib berish qoidalari bo'yicha o'qitilishini va unga yo'l-yo'riq berilishini ta'minlaydi;

tashuvchi yukni tashish shartnomasida belgilangan muddatda yukni jo'natuvchiga tegishli yukni tashish uchun yaroqli holatdagi soz avtotransport vositasini yuklash uchun beradi. Yukni boriladigan joyga tashishga, tipi va yuk ko'tarishiga ko'ra tashish shartnomasida belgilanganga muvofiq bo'lган, shuningdek tegishli asbob bilan jihozlangan avtotransport vositalari va konteynerlar yukni tashish uchun yaroqli deb e'tirof etiladi;

yukni jo'natuvchi tovar-transport hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan fitosanitariya, sanitariya, karantin, bojxona talablarini va boshqa talablarni bajarish uchun zarur bo'lган ma'lumotlarni, shuningdek tashishning cheklangan muddatlari va harorat rejimi to'g'risidagi tavsiyalarni va konteynerning qulflash, tamg'alash qurilmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi.

60. Bitta avtotransport vositasida bir necha yukni oluvchilarga yuklarni tashishda yukni jo'natuvchi (ekspeditor) ularni avtotransport vositasi kuzovida har bir yukni oluvchiga mo'ljallangan yukning butun assortimenti yuklanishini ta'minlaydigan etib joylashtirishi, shuningdek har bir yukni oluvchiga tovar-transport yukxatlarini yozishi shart.

2. Yuklarni tashish

61. Tez buziladigan yuklar asosan harorat rejimiga rioya qilgan holda izotermik kuzovli (furgonlarda, refrijiratorlarda va shu kabilarda) ixtisoslashtirilgan avtotransport vositalarida tashiladi.

Tez buziladigan yuklar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- a) o'simlik mahsulotlari: mevalar, reza mevalar, sabzavotlar, qo'ziqorinlar va boshqalar;
- b) hayvonlarning mahsulotlari: har xil hayvonlar va parrandalarning go'shti, baliq, ikra, sut, tuxum va boshqalar;
- v) qayta ishlash mahsulotlari: sut mahsulotlari, har xil yog'lar, muzlatilgan mevalar, kolbasa mahsulotlari va boshqa go'sht mahsulotlari, pishloqlar va shu kabilar;
- g) o'simliklar: ko'chatlar, gullar va boshqalar.

Agar tashish hujjatlarida yukni jo'natuvchi tomonidan tashishning cheklangan muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, shuningdek agar tashishning cheklangan muddati yetkazib berish muddatidan kam bo'lsa, tez buziladigan yuklar tashish uchun qabul qilinmaydi.

Tez buziladigan yuklar, agar:

yukni oluvchi yukni qabul qilishni rad etsa, yukni jo'natuvchi esa yangi yukni qabul qiluvchi to'g'risida yozma ko'rsatmalar bermagan bo'lsa;

yuklar ularni bundan keyin tashib bo'lmaydigan yoki maqsadga muvofiq bo'lмаган darajada shikastlangan bo'lsa sotilishi kerak.

Tashuvchi tez buziladigan yukni sotish uchun berish zarurligi to'g'risida mijozni yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Agar bildirishnomasi jo'natilgandan keyin besh kalendar kundan so'ng mijozdan javob olinmasa, tashuvchi tez buziladigan yukni uning ruxsatisiz sotishi mumkin.

Agar o'z xususiyatiga ko'ra omborga joylashtirilishi mumkin bo'lmasa, shuningdek agar yukni sotish kechiktirilishi uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, tashuvchi yukni sotish uchun qisqaroq muddatda ham berishi mumkin.

Sotilgan yuk uchun tashuvchi olgan summa ular o'rtasidagi kelishuv bo'yicha mijozga o'tkaziladi (beriladi).

Tashuvchi tashish uchun berilayotgan tez buziladigan yuklarning sifatini tanlab tekshirishi mumkin, germetik o'ramdag'i yuklar bundan mustasno.

Yukni ochish va keyinchalik uni o'rabi-joylashtirish tekshirishdan keyin yukni jo'natuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yukni jo'natuvchi tashuvchiga tez buziladigan yukka tovar-transport yukxati bilan birgalikda, agar bunday yuk majburiy sertifikatlani shi kerak bo'lgan mahsulotlar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa, sertifikat yoki sifat guvohnomasini taqdim etishi kerak.

Yukni jo'natuvchi tez buziladigan yukka tovar-transport yukxatida yuklashdan oldin yukning amaldagi haroratini va yukni tashishning cheklangan muddatini ko'rsatishi kerak. Agar yukxatida ko'rsatilgan tashishning cheklangan muddati yetkazib berish muddatidan ortiq bo'lsa, tez buziladigan yuklar tashuvchi tomonidan tashish uchun qabul qilinmasligi kerak.

Bir avtotransport vositasida tarkibi va xossalari ko'ra bir xil bo'lgan tez buziladigan yuklarning har xil turlarini birgalikda tashishga yo'l qo'yildi.

Oldingi tahrirga qarang.

61¹. Avtomobil transportida tashish uchun taqdim etiladigan tez buziladigan yuklar ro'yxati mazkur Qoidalarga **1- ilovada** keltirilgan. Tez buziladigan yuklarni saqlash va tashish harorat rejimi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

61². Bitta avtotransport vositasida birga tashishga ruxsat beriladigan tez buziladigan yuklar ro'yxati mazkur Qoidalarga **2- ilovada** keltirilgan.

61³. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositalarini ko'rikdan o'tkazish tartibi mazkur Qoidalarga **3- ilovada** keltirilgan.

(61¹-61³-bandlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-apreldagi 277-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2018-y., 09/18/277/1048-son)

62. Taraga joylashtirilgan sabzavotlar, mevalar, reza mevalar, uzumni tashishda yukni jo'natuvchi ularni avtotransport vositasi kuzovining yuk o'rinaligiga zinch qator qilib joylashtiradi.

63. Unli-kreml qandolatchilik mahsulotlari o'ramlarda tashiladi. Ular avtotransport vositasi kuzovida bir nechta qator qilib ustma-ust joylashtirilishi mumkin.

Unli-kreml qandolatchilik mahsulotlarini nooziq-ovqat mahsulotlar, shuningdek o'tkir hidli mahsulotlar yoki yangi yopilgan non bilan birgalikda tashishga yo'l qo'yilmaydi.

64. Non va non-bulka mahsulotlarini tashish uchun furgon tipidagi kuzovli, seksiyalarga bo‘lingan va lotoklar o‘rnatish uchun yo‘naltiruvchilar bilan jihozlangan avtotransport vositasi yoki non va non-bulka mahsulotlarini konteynerlarda tashish uchun moslashtirilgan avtotransport vositasi qo‘llaniladi. Non va non-bulka mahsulotlarini ushbu talablarga muvofiq jihozlanmagan avtotransport vositalarida tashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Non va non-bulka mahsulotlarini tashish uchun yukni jo‘natuvchidan qabul qilish va yukni oluvchiga topshirish tashuvchi tomonidan har bir lotokdagi (konteynerdagi) mahsulotlarning sonini hisoblamasdan standart to‘ldirilgan lotoklar (konteynerlar)ning nomi va soni bo‘yicha amalgalashiriladi.

65. Un ixtisoslashtirilgan avtotransport vositalari — sisternalarda tarasiz usulda va sholcha bilan yopilgan bortli platformali avtotransport vositalari — furgonlarda tarali usulda tashilishi mumkin. Yorma faqat tarali usulda tashiladi.

Un, yorma, shakar va tuzni turg‘un hidli yoki ularning o‘rami yuzasini iflos qiluvchi yuklar bilan birgalikda tashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Texnik tuz sholcha bilan o‘ralgan ochiq avtotransport vositalarida tashiladi.

Un, yorma, shakar va tuz solingan qoplar, agar ularni joylashtirish balandligi avtotransport vositasi borti balandligidan ortiq bo‘lsa mahkamlanadi.

66. Don, hashakning silos massasi va pichanni tashishda avtotransport vositasining kuzovi yukni atmosfera yog‘ingarchiligidan va tashishda kamayishdan himoya qilish uchun parda bilan jihozlanadi.

67. Paxta xomashyosi avtotransportning barcha turlarida tarasiz usulda (to‘kilgan holda) tashiladi, elita urug‘lik chigit va yangi qoplarda tashiladigan yangi navlar bundan mustasno. To‘kilgan holda tashiladigan paxta xomashyosining usti mato bilan yopilishi kerak.

Paxta xomashyosini tashiydigan avtotransport vositalari uchqun so‘ndirgichlar, olovni o‘chirgichlar va kuzovni yopish vositalari bilan jihozlanadi.

Xavfsizlik shartlari va agrotexnika talablari bo‘yicha paxta xomashyosini daladan tayyorlov punktiga tashishda avtotransport vositalarining paxtazorga kirishiga ruxsat berilmaydi.

Yukni jo‘natuvchi, yukni oluvchi tomonidan paxta xomashyosini jo‘natish va qabul qilish seleksiya va sanoat navlari, terish turlari va hokazolar bo‘yicha bir xildagi turkumlar bilan amalgalashiriladi.

Paxta tolasi, lintni tashishda yukning saqlanishini va yong‘in xavfsizligini ta’minlash uchun poliga metall bo‘lmagan material to‘shalgan va tekis bortli yopiq avtotransport vositalaridan foydalaniishi kerak.

Paxta tolasini bo‘yog‘i qurimagan yuk bo‘lmalarida hayvonot-xomashyo yuklari (teri xomashyosi, jun va shu kabilar) va nam chiqaruvchi yuklar bilan birgalikda tashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tolali paxta mahsulotlarining har bir turkumi (turkumning bir qismi) transportda alohida tashiladi. Avtotransport vositasiga tolali paxta mahsulotlarining bir nechta turkumlarini (qoidaga ko‘ra uchtagacha), agar ular bir xildagi seleksiya va sanoat navlari bo‘lsa, avtotransport vositasiga yuklashga yo‘l qo‘yiladi, bunda har bir turkumga sifat to‘g‘risidagi alohida hujjat rasmiylashtiriladi.

Yukni oluvchi bilan kelishgan holda avtotransport vositalariga tolali mahsulot turkumlari, agar ayni bir seleksiya va sanoat mollaridan bo‘lsa, ularning uchtadan ortiq turkumini yuklashga yo‘l qo‘yiladi. Yuklanadigan turkumga sifat to‘g‘risidagi alohida hujjat rasmiylashtiriladi.

Taxlamlarni avtotransport vositalariga ortish va tushirishda kamarlarni echishga va ularning “tugunchalari” uzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Texnik chigitlar to‘kilgan holda yoki toza, quruq, o‘zga hidlarsiz qoplarda tashiladi.

Transportda tashishda o‘rtacha tolali va uzun tolali seleksiya navlari urug‘liklari, turlichalashiriladi. Sanoat navlari va darajalari, shuningdek namlik yuqori bo‘lgan urug‘liklar aralash tashilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ekiladigan chigit solingan qoplar yopiq avtotransport vositalarida tashiladi. Ekiladigan chigitlarni ochiq avtotransport vositalarida tashishda chigit solingan qoplar brezent bilan yopiladi.

Dorivor ishqor bilan ishlov berilmagan ekiladigan chigitlarni to‘kilgan holda transportda tashishga yo‘l qo‘yiladi.

Ishqor bilan ishlov berilgan chigitlarni sexga transportda tashishda nobudgarchiliklarga va ekiladigan chigitlarning shikastlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Nuqsonlari aniq ko‘rinib turgan, bog‘lash kamarlari va o‘ralgan matoning yaxlitligi buzilgan, xo‘llangan va ifloslangan taxlamli paxta tolasi, lint taxlamlari, shuningdek o‘zidan o‘zi isib ketadigan yoki o‘zidan o‘zi yonib ketadigan paxta tashish uchun qabul qilinmaydi.

Tashiladigan paxta xomashyosining amaldagi massasini aniqlash uchun ham tayyorlov punktida yuklashda (tara, brutto), ham paxta tozalash zavodlarida tushirishda (brutto, tara) avtotransport vositasining bir tipdagi tarozilarida tortiladi, shuningdek har bir kuzovdan namuna olish, analizlar qilish yo‘li bilan natijalari paxta xomashyosining turkumiga tatbiq etiladigan uning konditsion massasi aniqlanadi.

68. Hayvonlar yoki parrandalarni tashish ixtisoslashtirilgan avtotransport vositasida yoki u mavjud bo‘lmaganda, hayvonlar yoki parrandalarni tashish uchun jihozlangan bort platforma tipidagi kuzovli avtotransport vositasida tashiladi.

Hayvonlar yoki parrandalarni o‘zi ag‘dargich kuzovli avtotransport vositasida tashish taqiqlanadi.

Tashuvchi, agar bu tashish shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, hayvonlar yoki parrandalarni kuzatib borishni o‘z zimmasiga olishi mumkin.

Tashish shartnomasi shartlariga muvofiq yukni kuzatib boradigan mijoz yoki tashuvchining vakili hayvonlar yoki parrandalarning kamomadi, jarohatlanishi va o‘latga chalinishi, shuningdek sanitariya normalariga rioxalarning etilmaganligi, hayvonlarni (parrandalarni) parvarish qilish uchun mo‘ljallangan mol-mulkning kamayishi va buzilishi uchun javob beradi.

Asalarilarni tashishda maqbul harorat 8°S . Asalarilarni avtotransport vositalari — furgonlarda tashqi havo harorati 10°S dan ortiq bo‘lmaganda tashishga yo‘l qo‘yiladi.

69. Charm, teri, momiq, pat, jun va boshqa shunga o‘xshash yuklarni (charm va teri-mo‘yna xomashyo) tashish yuk albatta brezent bilan yopilgan holda furgonlarda yoki bortli avtotransport vositalarida amalgalash uchun oshiriladi.

Charm va teri-mo‘yna xomashyoni avtotransport vositalari bilan chilvir bilan bog‘langan tagliklarda tashishga yo‘l qo‘yiladi.

Tuzlangan terilar bochkalarda, taxlamlarda, bog‘lam qilib va alohida (tarasiz) tashiladi. Terilarni quruq yuklar va o‘zga hidrlarni o‘ziga singdirib oladigan yuklar bilan birqalikda tashish taqiqlanadi.

Tuzlangan terilar atmosfera yog‘ingarchiliklaridan ishonchli himoyalangan bo‘lishi kerak. Separatsiyada yoki kuzovning poliga yotqizish uchun eman taxtalardan foydalanish taqiqlanadi.

Yuvilgan va yuvilmagan (yog‘li) junni birqalikda tashish, nam yoki ho‘l junni tashish uchun taqdim etish va uni nam yoki yog‘li yukka yuklash taqiqlanadi.

Hayvonlarning yunglari presslangan holda taxlamlar yoki qoplarda tashiladi.

70. Yiriklashtirilgan paketlarda yoki konteynerlarda idish-tovoqni tashishda avtotransport vositasi kuzovining poliga zinch qilib teng o‘lchamda xashak, pichan qatlami yoki yog‘och qipig‘i to‘shaladi. Paketlar qatorlariga ham gorizontal va vertikal bo‘yicha o‘rash materiali qo‘yiladi.

Shishadan yasalgan, xo‘jalikda ishlatiladigan idish-tovoq konteynerlarda, tara-uskunalarda yoki polietilen plyonka yopishtirilgan paketlarda tashiladi.

Idish-tovoq solingen tara va konteynerlarga “EHTIYOT BO‘LING, ShISHA!” degan yozuv yozilishi kerak.

Ovqatlanish anjomlari solingen qutilar suv o‘tkazmaydigan qog‘oz bilan qoplangan yog‘och yashchiklarga yonma-yon joylashtiriladi. O‘ralgan yashchiklar ko‘ndalangiga po‘lat o‘rash lentasi yoki yumshatilgan sim bilan o‘raladi.

Ovqatlanish anjomlarini kimyoviy moddalar va metallni korroziyaga uchratadigan boshqa materiallar bilan birqalikda tashishga ruxsat berilmaydi.

Yukni oluvchi pachkalar (paketlar) ichidan singandagi tovush eshitilsa ularni ochishni va tovarni bittalab topshirishni talab qilish huquqiga ega. Buyumlarning singanligi aniqlanganda yukni

olvchi buyumlarni qabul qilishni va singan buyumlarning haqini to‘lashni rad etishga, tashish shartnomasida belgilangan miqdorda tashuvchidan jarima undirishga, agar tovarlarning haqi to‘langan bo‘lsa, to‘langan summalarini belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

71. Suyuq organik o‘g‘itlar faqat ixtisoslashtirilgan avtotsisternalarda tashilishi kerak. Tashuvchi avtotsisternaning barcha rezbali birikmalari, qopqoqli tuynuklari va qulf qurilmalarining germetikligini, shuningdek shlanglarning mahkamlanganligi ishonchliliginin ta‘minlashi va to‘ldirish darajasini nazorat qilishi kerak.

72. Matolar va ulardan tikilgan buyumlar maxsus qattiq, yarim qattiq va yumshoq taraga joylashtirib tashiladi.

Matolar va ulardan tikilgan buyumlar solingen qattiq tara (taxta va faner yashchiklar) ko‘ndalangiga qulfga mahkamlangan metall lenta bilan o‘ralgan bo‘lishi kerak.

Ipak matolarning taxlamlarini ingichka sim bilan o‘rash taqiqlanadi.

Toyga o‘ralgan matolar qog‘oz bilan yoki o‘rash matosi bilan qoplanishi, bir chokda tikilishi va ko‘ndalangiga chilvir bilan o‘ralishi kerak.

73. Gilam va gilam buyumlar qanday holda ishlab chiqarilgan bo‘lsa, o‘sha shaklda o‘ralmasdan rulonlarda tashish uchun taqdim etilishi mumkin.

74. Poyabzalning har xil turlari maxsus taraga (karton qutilar, karton, yog‘och, faner, kombinatsiyalashtirilgan yashchiklarga solingen holda) joylashtirilgan holda tashish uchun taqdim etiladi.

75. Maishiy mashinalar, priborlar va boshqa murakkab maishiy texnika avtotransport vositasida tashish uchun yukning turiga qarab mahkamlangan holda zavod o‘ramida tashish uchun taqdim etiladi. O‘ramga manipulyatsion belgilar (“EHTIYOT BO‘LING, ShIShA!”, “TEPA QISMI”, “NAMDAN SAQLANG!”) bosiladi.

76. Mebel tashish uchun ham tarada, ham tarasiz usulda taqdim etiladi. Mebel tarasiz usulda tashilganda tashuvchi maxsus jihozlangan avtotransport vositasini qo‘llashi kerak.

77. Sement va gips tarasiz va tarali usulda (qoplarda) tashiladi. Tarasiz usulda tashish faqat ixtisoslashtirilgan avtotsisternalarda amalga oshiriladi.

Sement va gipsni ixtisoslashtirilgan avtotsisternalardan omborxonaga tushirish uchun yukni oluvchi qattiq qoplamali maydonchalarga ega bo‘lishi kerak.

Sement doimiy ravishda tushiriladigan joylarda (qorishma uzellari, zavodlar, qurilish maydonlari va shu kabilarda) yukni oluvchi ixtisoslashtirilgan avtotsisterna tushirish tomoniga 12 — 14⁰ qiyalikda bo‘lishini ta‘minlagan holda tushirish maydonchalarini jihozlashi kerak.

Ixtisoslashtirilgan avtotsisternalarni tushirish joyiga traktorlarda shatakda olib kelish, shuningdek tushirish shlanglarini sim, chilvir va boshqa qo‘losti vositalar yordamida qabul qilish qurilmalariga mahkamlash taqiqlanadi.

78. Asbestotsement shifer (yassi, to‘lqinli yoki boshqa konfiguratsiyali) avtotransport vositasida tashish uchun lentali yoki sim mahkamlash bandajlari bilan mahkamlangan konteynerlarda, tagliklarda taqdim etiladi.

Transportda tashish vaqtida mahkamlash buzilgan taqdirda shifer yukni oluvchiga tovar-transport yukxatida ko‘rsatilgan listlar soni bo‘yicha topshiriladi.

79. G‘isht avtotransport vositasida konteynerlarda, tagliklarda va ularsiz, shuningdek uyulgan holda tashiladi. Tagliklar, agar g‘ishtni joylashtirishning balandligi avtotransport vositasi kuzovi bortining balandligidan yuqori bo‘lsa, to‘suvchi qurilmalarga ega bo‘lishi kerak.

Tashuvchi paketning pastki qatoridan, burchaklaridan yoki chetlaridan g‘ishtlar tushib ketayotgan bo‘lsa, shuningdek agar g‘ishtni joylashtirishning balandligi avtotransport vositasi kuzovi borti balandligidan yuqori bo‘lsa, to‘suvchi qurilmalar yo‘q bo‘lganda paketlarni tashishga qabul qilmasligi mumkin.

Xom g‘isht 7 tonnagacha yuk ko‘taradigan avtotransport vositasining tagliklarida tashilganda paketlar yukni jo‘natuvchi tomonidan kuzovning o‘qi bo‘ylab joylashtirilishi, 7 tonnadan ortiq yuk ko‘taradigan avtotransport vositasida tashilganda esa — kuzovning yon bortlaridan biriga taqashtirilib shaxmat tartibida kuzovning o‘qiga perpendikulyar joylashtirilishi kerak.

80. Qurilish qorishmalari kuzovi sisterna shaklidagi avtotransport vositalari — qorishma tashuvchilarda, bortli avtotransport vositasining kuzoviga o'rnatilgan maxsus konteynerlar va pastak yog'och taralarda, shuningdek orqa bort termoizolyatsiya qopqoqlari, kigiz to'shamalar, shuningdek yilning qish vaqtida kuzovni ishlatilgan gazlar bilan isitish uchun qurilmalar bilan qo'shimcha ravishda zichlashtirilgan avtosomosvallarning kuzovlarida tashiladi.

Qurilish qorishmalari yopishib qolishidan himoya qilish uchun iflos narsalar va zanglardan sinchiklab tozalangan kuzovning ichki yuzasiga xlorli kalsiyning suvli eritmasi surtiladi.

81. Listli shishani tashish uchun brezent bilan ta'minlangan bort platformali avtomobillardan (avtopoyezdlardan yoki avtomobil furgonlardan) foydalilanadi. Vitrinaga mo'ljallangan list shisha maxsus jihozlangan avtotransport vositalarida tashilishi kerak.

Listli shisha yog'och yashchiklarda, universal yoki maxsus konteynerlarda, ko'p oborotli yashchiklarda va shishaning saqlanishini ta'minlaydigan boshqa tarada tashiladi.

Shisha solingan yashchiklar bir-biriga zich taqalgan holda avtotransport vositasining harakati yo'nalishi bo'ylab ko'ndalang holda uning kuzoviga joylashtiriladi. Kuzov to'lmagan taqdirda yashchiklar harakat vaqtida siljimaydigan va tebranmaydigan qilib mahkamlanadi yoki tikiladi.

Ko'p oborotli yashchiklardi listli shishani avtotransport vositasi kuzovining uzunasi va ko'ndalangiga o'rnatish mumkin. Yashchiklarni mahkamlash: yupqa taxtalar bilan tikish yoki burchaklari orqali sim bilan bog'lash zarur.

Ko'ndalangiga joylashtirishda ko'p oborotli yashchiklarni avtotransport vositasining kabinasiga tomon sal qiya holda o'rnatish zarur.

Nosoz va singan shisha bo'laklari bo'lgan yashchiklar va konteynerlar tashish uchun qabul qilinmaydi.

82. Santexnika buyumlari (chinni-ganch, metall) ularning himoya qilinishini ta'minlaydigan zavod o'ramida tashish uchun taqdim etiladi.

83. Temir-beton buyumlar konstruksiyasiga qarab yo'lda yukning barqaror holatini ta'minlaydigan uskuna bilan jihozlangan ixtisoslashtirilgan avtotransport vositalarida va gorizontal, vertikal yoki qiya holatda ixtisoslashtirilmagan avtotransport vositalarida tashilishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan avtotransportdan devorbop panellar va to'sgichlarni, shuningdek massasi 16 tonnadan ortiq temir-beton buyumlarni tashish uchun foydalilanadi.

Bortli platformali avtotransport vositalaridan (avtopoyezdlardan) uncha katta bo'lmagan o'lchamli temir-beton buyumlarni (poydevor bloklari, to'shamalar, plitalar, zinapoya marshlari va boshqalarni) tashish uchun foydalilanadi.

Uzun o'lchamli temir-beton buyumlarni (fermalar, to'sinlar va boshqalarni) tashish uchun yarimtirkamali va tirkamalar — yog'och aravali avtopoyezddan foydalilanadi.

84. Yog'och-taxta va arralangan binokorlik materiallarini tashish uchun foydalilanadigan ixtisoslashtirilmagan avtotransport vositalari yog'och-taxtalar kabinaga siljishining oldini oluvchi maxsus moslamalar (tishlar, sirg'alishga qarshi taroqlar) bilan jihozlanadi, kabinaning orqasiga esa yog'och xoda, govronlarning zarbalaridan himoya qilish uchun g'ov o'rnatiladi.

Yog'och-taxta va arralangan binokorlik materiallari avtotransport vositasi va tirkama bo'yicha teng joylashtiriladi. Avtotransport vositasidagi yukning balandligi tirkama-yog'och aravadagi yukning balandligidan 100 millimetrdan ortiq bo'lmashi kerak.

Yog'och-taxta va arralangan binokorlik materiallarini tashishda yukni jo'natuvchi yog'och-taxta materiallarini oldindan uzunligi bo'yicha navlarga ajratib paketlarga joylashtirishi va ularni inventar bog'ich bilan mahkamlashi kerak.

Yog'och-taxta va arralangan binokorlik materiallarini yukni jo'natuvchidan tashish uchun qabul qilish va yukni oluvchiga topshirish tashuvchi tomonidan hajmi bo'yicha, paketli usulda tashishda esa — yuk o'rnlari (paketlar) soni bo'yicha amalga oshiriladi.

85. Metall va undan yasalgan buyumlarni tashish uchun ularning guruhibiga qarab bortli platformali avtotransport vositalari, yarimtirkamali shatakkilar, metall tashuvchilar, tirkamali-yog'och aravali avtomobillar qo'llaniladi.

Metall va undan tayyorlangan buyumlar:

uzun o'lchamli prokat (po'lat prokat, burchaklar, shvellerlar va qo'shtavrlar — shtabellarda yoki bog'lamalarda;

po'lat kanatlar — buxtaga yoki barabanga o'ralgan holda;

o'rama setkalar — yumshoq po'lat sim bilan o'ralgan holda;

yassi setkalar — paketlarga bog'langan holda;

kichik gabaritli metall (mixparchinlar, boltlar, gaykalar, shaybalar, vintlar) — taraga joylashtirilgan holda;

elektrodlar — qog'ozga o'ralgan va yashchiklarga joylashtirilgan holda;

rangli metallar va qotishmalar — pachkalarga bog'langan va taraga joylashtirilgan holda tashiladi.

Uzun o'lchamli metallarni (va boshqa metallardan tayyorlangan buyumlarni) yuklashda tirkama-yog'och aravalarda tirkamaning burishini ta'minlash uchun avtomobilga nisbatan istalgan tomonga 90 darajada kabina bilan yuk o'rtasida oraliq qoldirilishi kerak.

Tashuvchi avtotransport vositasi kuzovining old qismiga yuk kabinani shikastlashidan himoya qilish uchun po'lat g'ov o'rnatishi kerak.

86. Yuk ortilgan konteynerni qabul qilib olishda tashuvchi va mijoz konteynerni tashqi tomondan ko'zdan kechiradilar, tamg'aning, tamg'alash simining yaxlitligi va sozligini, konteyner raqami va tamg'a izi nazorat belgisining tovar-transport yukxatida ko'rsatilgan konteyner raqami va nazorat belgisiga muvofiqligini tekshiradilar.

Yukni joylashtirishda yukni jo'natuvchi yuk bilan konteyner eshigi o'rtasida 30 millimetrdan 50 millimetrgacha bo'sh oraliq qoldirishi kerak. Yuk konteyner ichida yukni jo'natuvchi tomonidan noto'g'ri joylashtirishi yoki mahkamlanishi oqibatida yuz bergen yukning buzilganligi va shikastlanganligi uchun tashuvchi javob bermaydi. Tamg'a noaniq bosilgan, shuningdek noto'g'ri ililingan tamg'ali konteynerni qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Har bir konteynerga yukni jo'natuvchi yuklangan o'rinlar sonini ko'rsatgan holda muhr va imzo bilan tasdiqlangan yukning ro'yxatini solib qo'yadi.

Yuk nosoz konteynerda, shuningdek tamg'a buzilgan yoki tamg'alanmagan konteynerda kelgan taqdirda yukni oluvchi konteynerni ochishi, tashuvchining vakili bilan birgalikda yukning massasi, o'rinlar soni va holatini tekshirishi kerak va yuk yo'qotilganligi, buzilganligi yoki shikastlanganligi aniqlangan taqdirda tovar-transport yukxatiga yozuvni qayd etishi yoki belgilangan tartibda dalolatnoma tuzishi kerak.

87. Kimyo-farmatsevtika sanoati mahsulotlari (dori-darmonlar) tashish uchun 20 kilogrammdan og'ir bo'limgan massali karton qutilarda, yog'och yashchiklarda, shisha idishlarda, shuningdek konteynerlarda taqdim etiladi.

Shisha o'ramdag'i suyuq dori-darmonlar ortish, transportda tashish va tushirish paytida shikastlanmasligi uchun yashchiklar tagliklar bilan birga joylashtiriladi. Shisha idishlar yog'och kataklarga yoki novdalardan yasalgan savatlarga joylashtiriladi. Yashchiklarning tubi, tagliklar va savatlardagi bo'sh oraliqlar hamda qopqoqning ostidagi joy o'rash materiali bilan to'ldiriladi.

88. Kauchuk o'ralmasdan taxlamlarda, yashchiklarda, qoplarda va bloklarda tashiladi.

Avtotransport vositasi kuzovi ichki yuzasining barcha metall qismi kauchukdan quruq taxtalar yoki faner bilan to'silgan bo'lishi kerak. Kauchukning ustiga boshqa har qanday yukni yuklash taqilanganadi.

Kauchukni ortish boshlanguniga qadar yukni jo'natuvchi yong'inga qarshi xavfsizlikning zarur choralarini ta'minlashi kerak.

Lateksni (tabiiy kauchukning suvli eritmasini) tashishda maxsus saqlagichli klapanli bochkalar qo'llaniladi.

Xalq iste'moli tovarlariga tegishli bo'lgan rezina va rezina buyumlar (poyabzal, o'ynichoqlar, attorlik buyumlari) o'ralgan shaklda tashiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

88¹. Qurilish materiallarini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, sanoat va oziq-ovqat tovarlarini, shuningdek, boshqa to'kiladigan (issiq asfalt, yirik gabaritli va og'ir yuklardan tashqari)

yuklarni ochiq avtotransport vositalarida tashish yukni majburiy tartibda brezent yoki boshqa qalin material bilan qoplagan holda amalga oshiriladi.

88². Avtotransport vositalarining qurilish obyektlaridan kuzovni va avtotransport vositalarining g'ildiraklarini yuvmasdan umumiyl foydalaniladigan yo'llarga chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

(88¹-88²-bandlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-maydag'i 395-soni qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2018-y., 09/18/395/1282-son)

IV. Tashuvchilar, yukni jo'natuvchilar va yukni oluvchilarning huquq va majburiyatları hamda ularning javobgarligi

89. Tashuvchi va mijoz o'z huquq va majburiyatlarini qonun hujjatlariga muvofiq amalgal oshiradilar.

90. Tashuvchilar va mijozlar tashish shartnomasi bo'yicha majburiyatlar buzilganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

91. Taqdim etilmagan yoki bo'lmasa taqdim etilgan, biroq tashilmagan yukka taqdim etilgan tashish qiymati tashish paytida amal qilgan, shartnomada ko'rsatilgan tarifning tashish qiymatidan kelib chiqib belgilanadi. Jabrlangan tomon o'z shartnoma majburiyatlarini bajarmagan tomonidan zarar qoplanishini talab qilishi mumkin.

92. Mijoz, agar yuk yukni oluvchining talabi bo'yicha:

shahar va shahar atrofida tashishda — yuk tashish uchun qabul qilingan kundan boshlab 10 kun mobaynida;

shaharalararo tashishda — yetkazib berish muddati tamom bo'lgandan keyin 30 kun mobaynida;

to'g'ridan to'g'ri aralash tashishda — yuk tashish uchun qabul qilingan kundan boshlab to'rt oy o'tgach yukni oluvchiga berilmasa, yukni yo'qotilgan deb hisoblashga va yuk yo'qotilganligini qoplashni talab qilishga haqlidir.

93. Avtotransport vositasi tashish shartnomasida belgilangandan ortiqcha vaqt normasida yuk ortilgan yoki tushirilgan holda bekor turib qolganligi, shuningdek mijozning aybi bo'yicha avtotransport vositasi to'xtash joyida yoki borish yo'lida bekor turib qolganligi uchun tashuvchi tashish shartnomasida nazarda tutilgan neustoykani talab qilishga haqlidir.

94. Tovar-transport yukxatidagi yoki yo'l varaqasidagi avtotransport vositasi kelgan va jo'nab ketgan vaqt to'g'risidagi belgilar avtotransport vositasi bekor turib qolganligi uchun da'vo qo'zg'ash uchun asos hisoblanadi.

95. Tashish shartnomasida tovar-transport yukxatini, shuningdek yo'l varaqasini rasmiylashtirish rad etilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun mijoz tomonidan tashuvchiga neustoyka to'lash nazarda tutilishi mumkin.

96. Yukni jo'natuvchi u tomonidan tovar-transport hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning noto'g'riliqi, noaniqligi yoki to'liq emasligi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha zararlar uchun tashuvchi, yukni oluvchi va tashish jarayonida ishtiroy etuvchi barcha shaxslar oldida javob beradi.

97. Mijoz avtotransport vositalariga qonun hujjatlarida taqiqlangan va ilova hujjatlarida ko'rsatilmagan yuklar ortilganligi uchun javob beradi.

98. Yukni tashish shartnomasidan kelib chiqadigan da'veni tashuvchiga taqdim etishdan oldin unga talab taqdim etish majburiydir.

Tashish shartnomasi shartlari bajarilmasligi yoxud zarur tarzda bajarilmasligi munosabati bilan tashuvchi bilan mijoz o'rtasidagi kelishmovchiliklar hollari tomonlarning kelishuviga ko'ra erkin shakldagi dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilishi mumkin, ularda tomonlarning javobgarligi choralarini belgilash uchun asos hisoblanadigan holatlar ko'rsatiladi.

99. Yukning yo'qolganligi, buzilganligi, kamomadi yoki shikastlanganligi uchun zararni qoplash to'g'risidagi da'vo har bir jo'natish bo'yicha alohida taqdim etilishi kerak. Bir yukni jo'natuvchining bir yukni oluvchi manziliga bir turdag'i yuklari bo'yicha jo'natishlar guruhiiga bitta da'vo taqdim etishga yo'l qo'yiladi.

Da'volarga zarur hujjatlар (tovar-transport yukxati, tovar uchun chek va zararning hisob-kitobi) ilova qilingan bo'lishi kerak.

100. Tashuvchiga da'volar mijoz tomonidan ushbu Qoidalarning **7-bandida** belgilangan muddatlar tamom bo'lgandan keyin taqdim etilishi mumkin.

Zarur hujjatlarsiz tashuvchiga berilgan da'volar u olingen kundan boshlab o'n kun muddatda berilgan hujjatlар bilan birgalikda va qaytarish sabablari ko'rsatilgan holda ariza beruvchiga qaytariladi. Bunda da'volarni taqdim etish uchun belgilangan muddat to'xtatilmaydi.

Da'vo pochtada yoki bevosita tashuvchiga tilxat ostida berilgan kun mijoz tomonidan da'vo berilgan kun deb hisoblanadi.

Da'voni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida tashuvchi mijozni o'ttiz kunlik muddatda xabardor qilishi kerak. Da'vo tashuvchi tomonidan rad etilgan taqdirda u da'vo rad etilishining sabablarini ko'rsatishi kerak.

101. Tashuvchi da'voni to'liq yoki qisman rad etgan, yoxud tashuvchidan o'ttiz kunlik muddatda javob olinmagan taqdirda tashuvchiga da'vo yukni jo'natuvchi yoki yukni oluvchi tomonidan taqdim etilishi mumkin.

V. Yakunlovchi qoidalar

102. Ushbu Qoidalalar buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

103. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 11-dekabrdagi 472-sон qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati **qoidalarda** nazarda tutilgan yuklarni tashishga qo'yildigan talablar buzilgan hollarda yuklarni tashish qoidalari buzilishi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi **kodeksiga** muvofiq javobgarlikka olib keladi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish **qoidalariiga**
1-ILOVA

Avtomobil transportida tashishga taqdim etiladigan tez buziladigan yuklar

RO'YXATI

T/r	Yuk nomi
1.	Muzlatilgan yuklar (go'sht, kalla-pocha, ichak-chovoq, go'sht, qush, baliq, shpig, tuxumli muzlatilgan mahsulotlar)
2.	Sariyog'
3.	Eritilgan mol yog'i, eritilgan yog'
4.	Yangi va pasterizatsiyalangan sut, sut mahsulotlari (yogurt, kefir, qaymoq va yangi pishloq)
5.	Birlamchi qayta ishlash zavodidan tashiladigan sut
6	Muzqaymoq
7.	Achitqi (Drojji)
8.	Mayonez
9.	Margarin
10.	Turli pishloqlar
11	Yashiklardagi yengil tuzlangan seld
12.	Sovutilgan, muz bilan aralashtirilgan baliq
13.	Issiq dudlangan muzlatilgan baliq
14.	Kolbasalar va qaynatilgan kolbasa mahsulotlari
15.	Tez muzlatilgan go'sht, baliq, pazandalik mahsulotlari, meva va reza mevalar, quyultirilgan meva sharbatlari

Izoh:

O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalari talablari joriy etilgan yuklarni tashishlarda ularga rioya etish uchun javobgarlik:

yuklarni yollash yoki haq to‘lash bo‘yicha tashishda — tovar-transport yuk xatiga muvofiq yuk jo‘natuvchi hisoblangan jismoniy yoki yuridik shaxsga yoki tovar-transport yuk xati mavjud bo‘lmagan taqdirda — tashuvchi bilan tashishlar haqida shartnoma tuzgan jismoniy shaxsga;
boshqa holatlarda — tashuvchiga yuklanadi.

**O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalariga
2-ILOVA**

**Bitta avtovositasida birga tashishga ruxsat beriladigan tez buziladigan yuklar
guruhi**

t/r	Mahsulotlar guruhi
	A guruhi) o‘simliklardan tayyorlangan mahsulotlar
	1) Sovutilgan mahsulotlar
1.	Qishki olmalar
2.	Qishki noklar
3.	Uzum
	2) Sovutilgan mahsulotlar
1.	Yozgi va kuzgi olmalar va noklar
2.	O‘rik va shaftolilar
3.	Olxo‘ri
4.	Uzum
5.	Olcha va gilos
6.	Krijovnik
7.	Qorag‘at
	3) Sovutilgan mahsulotlar
1.	Qo‘ng‘ir va pushti rang pomidorlar
2.	Oq po‘stli karam
	B guruhi) hayvonlardan olingan mahsulotlar
	1) Muzlatilgan va sovutilgan mahsulotlar
1.	Muzlatilgan go‘sht
2.	1-toifali muzlatilgan kalla-pocha, ichak-chovoq mahsulotlari (jigar, buyrak, yurak, miya, tillar, elin, dumlar, nimtalangan go‘sht), idishga solingan miyadan tashqari
3.	Blokarda muzlatilgan go‘sht va kalla-pocha, ichak-chovoq,
4.	Muzlatilgan qush
5.	moy — shpig
6.	Muzlatilgan tuxum mahsulotlar
	2) Sovutilgan mahsulotlar
1.	Tuxum
2.	Germetik tunuka va shisha idishlardagi konservalar
	V guruhi) qayta ishlangan mahsulotlar: sut mahsulotlari, turli yog‘lar, kolbasa mahsulotlari, pishloqlar va boshqalar
	G guruhi) tirik o‘simliklar: ko‘chatlar, gullar va boshqalar
	D guruhi) quritilgan mahsulotlar
1.	Quritilgan tuxum mahsulotlari
2.	Quruq quymoq
3.	Quruq sut
4.	Yog‘sizlantirilgan quruq sut
5.	Quruq mevalar
6.	Yong‘oqlar
7.	Quyuqlashtirilgan sut

8.	Germetik tunuka idishdagi quyuqlashtirilgan sut
9.	Germetik tunuka va shisha idishlardagi konservalar

**O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalariga
3-ILOVA**

**Tez buziladigan yuklarni tashishga mo‘ljallangan avtotransport vositalarini ko‘rikdan
o‘tkazish**

TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Atamalar va ta’riflar

SPS — 1970-yil 1-sentabrda Jeneva shahrida (Shveysariya Konfederatsiyasi) imzolangan Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashishlar to‘g‘risidagi va ushbu tashishlar uchun mo‘ljallangan maxsus transport vositalari haqidagi bitimlar;

izotermik avtotransport vositasi — kuzovi, shu jumladan eshigi, poli va tomi kuzovning tashqi va ichki yuzasi o‘rtasida issiqlik almashishini cheklash imkonini beradigan termoizolyatsiya devorlaridan iborat bo‘lgan avtotransport vositasi;

muzxona-avtotransport vositasi — mexanik yoki absorbsion uskuna bo‘lmagan sovuqlik manbai yordamida (tuz qo‘silgan yoki qo‘silmagan tabiiy muz; evtektik plitalar; sublimatsiyasini boshqarish imkonini beradigan moslamali yoki moslamasiz quruq muz; bug‘lanishni boshqara oladigan uskunali yoki uskunasiz suyultirilgan gazlar va boshqalar) yuksiz kuzovning ichida haroratni pasaytirish va shundan so‘ng ushbu haroratni belgilangan tashqi haroratda, belgilangan vaqtgacha o‘rnatilgan diapazonda saqlab turish imkonini beruvchi izotermik avtotransport vositasi;

refrijerator-avtotransport vositasi — bir necha avtotransport vositalari uchun alohida yoki umumiy bo‘lgan muzlatgich uskunasi (mexanik kompressor yoki absorbsion uskuna va boshqalar bilan jihozlangan) yordamida yuksiz kuzovning ichida haroratni pasaytirish va shundan so‘ng ushbu haroratni belgilangan tashqi haroratda, belgilangan vaqtgacha o‘rnatilgan diapazonda saqlab turish imkonini beruvchi izotermik avtotransport vositasi;

isitiladigan avtotransport vositasi — isitish uskunasi yordamida yuksiz kuzovning ichida haroratni ko‘taradigan va shundan so‘ng ushbu haroratni qo‘sishimcha issiqlik kelmaganda, muayyan vaqt davomida doimiy maromda saqlab turish imkonini beruvchi izotermik avtotransport vositasi;

SPS guvohnomasi — mamlakatning SPS Bitimini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan vakolatli organi tomonidan beriladigan va avtotransport vositasi SPS Bitimi talablariga mosligini tasdiqlovchi hujjat;

texnik ko‘rik (kelgusida) — avtotransport vositalari ko‘rigi — avtotransport vositasining o‘rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida ularni ekspert tekshiruvlarini o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar. Ushbu tekshiruvlar natijalari bo‘yicha SPS guvohnomasi rasmiylashtiriladi va SPSda belgilangan tartibda markirovka amalga oshiriladi;

texnik tartibga solish — mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo‘yiladigan majburiy talablarning o‘rnatilishi, qo‘llanishi va bajarilishi;

avtotransport vositalarining ekspert tekshiruvi — tez buziladigan yuklarni tashishlarga mo‘ljallangan, O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatdan o‘tgan va foydalanishdagi avtotransport vositalarining “O‘zstandart” agentligida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan laboratoriylar tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvi;

sovutish va isitish uchun mo‘ljallangan termik uskunaning samaradorligi — termik uskunaning ma’lum tashqi haroratda izotermik avtotransport vositasi kuzovi ichidagi belgilangan haroratni saqlash qobiliyati.

2. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari quyidagi belgililar bo‘yicha toifalanadi:

avtotransport vositasi turi;

kuzov turi;

harorat rejimini ta’minlash texnologiyasi.

3. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari turlar bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:

yuk avtomobili;
tirkama;
yarimtirkama;
konteyner.

4. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari kuzov turlari bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:

furgon;
sisterna.

5. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari harorat rejimini ta’minalash texnologiyasi bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:

I — izotermik avtotransport vositasi;
R — muzlatgich-avtotransport vositasi;
F — refrijerator-avtotransport vositasi;
C — isitiladigan avtotransport vositasi.

6. Izotermik avtotransport vositalari kuzovning ichki va tashqi yuzalari o‘rtasida issiqlik almashishni cheklash xususiyatiga ko‘ra ikki toifaga bo‘linadi:

normal izolyatsiyali I_N izotermik avtotransport vositasi;
kuchaytirilgan izolyatsiyali I_R izotermik avtotransport vositasi.

7. Sovutish va isitish uchun mo‘ljallangan termik uskunalar samaradorligi bo‘yicha avtotransport vositalari quyidagi toifalarga bo‘linadi: A, B, C, D E va F.

8. Issiqlik berish umumiyligi koeffitsiyentining miqdori, ya’ni K koeffitsiyenti tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari kuzovining izotermik xususiyatlarini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

9. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari K koeffitsiyentiga nisbatan quyidagi talablarga javob berishi shart:

normal izolyatsiyali I_N izotermik avtotransport vositalari — $0,70 \text{ Vt/m}^2\text{Kdan}$ ko‘p bo‘lganda K koeffitsiyentiga ega bo‘lishi;

kuchaytirilgan izolyatsiyali I_R izotermik avtotransport vositalari — $0,40 \text{ Vt/m}^2\text{Kdan}$ ko‘p bo‘lganda K koeffitsiyentiga ega bo‘lishi;

10. A toifadagi normal yoki kuchaytirilgan izolyatsiyali muzxonalar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning plus 7 S° dan oshmaydigan darajada saqlanishini ta’minalashi lozim.

11. V toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali muzxonalar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning minus 10 S° dan oshmaydigan darajada saqlanishini ta’minalashi lozim.

12. S toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali muzxonalar o‘rtacha 30 daraja tashqi issiq haroratda, kuzov ichida minus 20 S° darajadagi haroratni saqlanishini ta’minalashi lozim.

13. D toifadagi normal yoki kuchaytirilgan izolyatsiyali muzxonalar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning 0 S° darajada saqlanishini ta’minalashi lozim.

14. A toifadagi normal yoki kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijeratorlar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning plus 12 dan 0 S° gacha darajada saqlanishini ta’minalashi lozim.

15. V toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijeratorlar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning plus 12 S° dan minus 10 S° gacha darajada saqlanishini ta’minalashi lozim.

16. S toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijeratorlar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning plus 12 S° dan minus 20 S° gacha darajada saqlanishini ta’minalashi lozim.

17. D toifadagi normal yoki kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijeratorlar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning 0 S° dan oshmaydigan darajada saqlanishini ta’minlashi lozim.

18. E toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijeratorlar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning minus 10 S° dan oshmaydigan darajada saqlanishini ta’minlashi lozim.

19. F toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijeratorlar tashqi harorat o‘rtacha 30 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning minus 20 S° dan oshmaydigan darajada saqlanishini ta’minlashi lozim.

20. A toifadagi normal va kuchaytirilgan izolyatsiyali isitiladigan izotermik avtotransport vositalari tashqi harorat o‘rtacha minus 10 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning plus 12 S° dan oshmaydigan darajada kamida 12 soatdan davomida saqlanishini ta’minlashi lozim.

21. V toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali isitiladigan izotermik avtotransport vositalari tashqi harorat o‘rtacha minus 20 S° bo‘lganda, kuzov ichidagi haroratning plus 12 S° dan oshmaydigan darajada kamida 12 soatdan davomida saqlanishini ta’minlashi lozim.

22. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari yuk bo‘limmalarida havo haroratini minus 20 S° dan plus 30 S° gacha darajada nazorat qilish, shuningdek, tashishlar harorat rejimining o‘zgarishlari haqida haydovchini xabardor qilish imkonini beradigan o‘lchash va yozib boruvchi uskunalar bilan jihozlanishi lozim.

23. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalarining yuk bo‘limmalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan kontaktda bo‘lganda xavfsiz materiallardan tayyorlanishi lozim.

24. Izotermik avtotransport vositalarining termik uskunalarida ozonni emirish qobiliyati nolga teng va global isitish qobiliyati past ruxsat etilgan xladagentlar qo‘llanishi lozim.

2-bob. Avtotransport vositalarini ko‘rikdan o‘tkazish

25. Ko‘rik tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan har bir avtotransport vositalariga SPS ga muvofiq SPS guvohnomasini berishni nazarda tutadi.

26. SPS guvohnomasida quyidagilar qayd etiladi:

tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositasi egasining (vakilining) nomi va joylashgan joyi;

tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositasini ishlab chiqaruvchining nomi va joylashgan joyi;

guvohnomani bergen tashkilotning nomi va joylashgan joyi;

tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositasi haqida, ushbu Tartibga muvofiq ushbu avtotransport vositasini, uning turi, toifasini identifikatsiyalash imkonini beradigan ma’lumotlar;

tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositasining belgilangan talablarga muvofiqligi haqida ekspert tashkilotining xulosasi;

avtotransport vositalarining o‘tkazilgan ekspert tekshiruvlari natijalari haqidagi ma’lumot; SPS guvohnomasining amal qilish muddati.

Guvohnoma bergenlik uchun yig‘im undirilmaydi.

27. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan va O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va foydalaniyatgan avtotransport vositalari avtotransport vositalarini ekspert tekshiruvlarini o‘tkazish asosida ko‘rikdan o‘tkaziladi.

28. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan va O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va foydalaniyatgan avtotransport vositalarining ekspert tekshiruvlari “O‘zstandart” agentligida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan laboratoriylar (keyingi o‘rinlarda ro‘yxatga olingan laboratoriya deb ataladi) tomonidan o‘tkaziladi.

29. Avtotransport vositalarini ekspert tekshiruvdan o‘tkazish usullari foydalaniyatgan avtotransport vositalarini tekshiruvdan o‘tkazishiga nisbatan SPSga hamda ekspert tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan boshqa usullarga muvofiq bo‘lishi lozim.

30. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan yangi tayyorlangan avtotransport vositalarining ekspert tekshiruvi ular tayyorlanganidan 6 yildan so‘ng, kelgusi yillarda esa — har 3 yilda o‘tkaziladi.

31. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalarining egalari yoki egalarining nomidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda ularga egalik qiluvchi, foydalanuvchi va (yoki) tasarruf etuvchi shaxslar (keyingi o‘rinlarda egalari/egalarining vakillari deb ataladi) avtotransport vositalarini ekspert tekshiruvidan o‘tkazish uchun mazkur Tartibning **30-bandiga** muvofiq muddatlarda taqdim etishlari lozim.

32. Avtotransport vositalarining ekspert tekshiruvi ro‘yxatga olingan laboratoriya tomonidan ariza beruvchining talabnomasi va u bilan ikki nusxada tuziladigan shartnoma asosida o‘tkaziladi.

33. Ro‘yxatdan o‘tgan laboratoriya arizani bir ish kunida ro‘yxatga oladi va ikki ish kuni davomida ariza beruvchiga transport vositasining izotermik xususiyatlari tekshirilgani to‘g‘risida bayonnomma nusxasini beradi. Bayonnomaning asl nusxasini SPSni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organga SPS guvohnomasini berish uchun topshiradi. Bayonnomma elektron shaklda yoki to‘g‘ridan to‘g‘rigerilishi mumkin.

34. Bitimni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ (O‘zbekiston avtomobil transporti agentligi va uning hududiy boshqarmalari) bir ish kuni davomida ariza beruvchiga SPS guvohnomasini SPSda o‘rnatilgan shaklda beradi va uni SPS guvohnomalarini reyestrida ro‘yxatdan o‘tkazadi.

35. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari izotermik xususiyatlarining yoki ularga o‘rnatilgan termik uskunalar samaradorligining ayrim tashqi ta’sirlar natijasida konstruksiya buzilishi tufayli o‘zgarishi tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari egasi (uning vakili) tomonidan avtotransport vositasini ekspert tekshiruvi shaklida rejadan tashqari ko‘rikdan o‘tkazish uchun taqdim etishga asos bo‘ladi.

36. Tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositasining egasi (uning vakili) SPS guvohnomasi berilgan tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositasiga mazkur Tartib talablariga muvofiq uning toifasi va turini o‘z ichiga olgan harfli tanish belgilarini qo‘yishi lozim.

3-bob. Foydalanilayotgan transport vositalarining izotermik xususiyatlarini nazorat qilish

37. Transport vositasini umumiy tekshirish:

Bajarilayotgan ishlар nomi	Texnik xususiyat, qisqa ta’rif
Transport vositasini umumiy tekshirish: Izolyatsiyalovchi qatlam tuzilishining umumiy xususiyati; Izolyatsiyalash usuli, devorlar turi va holati; Izotermik to‘siqning saqlanish holati; Devorlar qalinligi.	Ekspert tomonidan ko‘rikdan o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Aniqlangan kamchiliklar, e’tirozlar ko‘rik bayonnomasida qayd etiladi
Havo o‘tkazmasligini tekshirish	Teshiklardan qarama-qarshi tomonidan yorug‘lik tushishini tekshirish. Bu jarayon ekspert tomonidan bajariladi.

Izoh: Havo o‘tkazmasligini tekshirish (sisterna-transport vositalariga nisbatan qo‘llanilmaydi).

38. Tekshiruv yorqin yoritiladigan zonaga qo‘yiladigan transport vositasining ichida turgan ekspert tomonidan amalga oshiriladi. Aniqroq natijalarni berishi mumkin bo‘lgan boshqa usullar qo‘llanilishi mumkin.

39. O‘lchovlar vositalari ulardan foydalanish hujjalariiga muvofiq joriy etiladi, o‘lchovlar shartlari va davomiyligi o‘lchovlar usuliga to‘liq mos kelishi lozim.

40. Geometrik hajmlar o‘lchovlar vositalari yoki bir necha o‘lchov vositalari yordamida o‘lchanganda, ushbu hajm uch marta o‘lchanishi lozim va yakuniy natija esa uch o‘lchovning o‘rtacha arifmet qiymati sifatida qabul qilinishi kerak.

O‘lchovlarni amalga oshirishda o‘lchov priborlarining texnik hujjatlari yo‘riqnomasiga rioya etilishi shart.

41. Geometrik hajmlarni shtangensirkul va ruletkalardan foydalangan holda o‘lchanadi.

Quyidagi ko‘rsatkichlar o‘lchanadi:

kuzovning tashqi o‘lchamlari: uzunligi, eni, balandligi;

kuzovning ichki o‘lchamlari: uzunligi, eni, balandligi;

Hisob-kitob yo‘li bilan quyidagilar aniqlanadi:

kuzovning umumiy maydoni;

kuzovning ichki foydali hajmi;

kuzovning umumiy ichki yuzasi;

kuzovning umumiy tashqi yuzasi;

kuzovning o‘rtacha yuzasi;

issiqlik almashish yuzasining o‘rtacha kattaligi;

devorlarning umumiy qalinligi.

42. Ekspert transport vositasining umumiy holati bo‘yicha xulosa qiladi. Kuzovning umumiy holatiga tegishli xulosa ijobiy bo‘lgan taqdirda, transport vositasini uni ishlab chiqargan zavod tomonidan dastlab belgilangan toifa bo‘yicha uch yil muddatga baholash tavsiya etiladi va avtotransport vositasi uning izotermik xususiyatlarini aniqlash o‘tkazish uchun yuboriladi.

43. Xulosa salbiy bo‘lgan taqdirda, avtotransport vositasi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun yuboriladi. Kamchiliklarni bartaraf etilgandan so‘ng avtotransport vositasi qayta tekshiruvga taqdim etilishi mumkin.

4-bob. Foydalanilayotgan transport vositalari termik uskunalarining samaradorligini tekshirish

44. Foydalanilayotgan har bir refrijerator-transport vositasi termik uskunalarining samaradorligini tekshirish uchun uning izotermik xususiyatlari tekshiriladi.

45. 2012-yil 2-yanvardan keyin ishlab chiqarilgan transport vositalari uchun:

tashqi harorat plus 15 S° dan kam bo‘lma ganda, yuksiz transport vositasining ichki harorati maksimal davrda (daqiqalarda) ushbu toifadagi transport vositasi uchun quyidagi jadvalda nazarda tutilgan haroratgacha yetkazilishi mumkinligini aniqlash maqsadida tekshirish amalga oshiriladi:

Tashqi harorat	30	29	28	27	26	25	24	23	22	21	20	19	18	17	16	15	S°
C,F toifalar	360	350	340	330	320	310	300	290	280	270	260	250	240	230	220	210	daqiqa
B,E toifalar	270	262	253	245	236	228	219	211	202	194	185	177	168	160	151	143	daqiqa
A,D toifalar	180	173	166	159	152	145	138	131	124	117	110	103	96	89	82	75	daqiqa

Yuksiz transport vositasining ichki harorati dastlab tashqi haroratgacha yetkazilishi shart.

46. Foydalanilayotgan transport vositalariga nisbatan qo‘llaniladigan qo‘sishimcha qoidalar.

Mazkur Tartibning **45-bandida** ko‘rsatilgan muddatgacha ishlab chiqarilgan transport vositalariga nisbatan quyidagi qoidalar qo‘llaniladi:

tashqi harorat plus 15 S dan kam bo‘lma ganda, yuksiz transport vositasining dastlab tashqi haroratgacha yetkazilgan ichki harorati davomiyligi olti soatdan ortiq bo‘lma ganda muddat mobaynida:

A, V va S toifadagi transport vositalari uchun — ushbu toifadagi transport vositalariga mo‘ljallangan minimal haroratgacha;

D, E va F toifadagi transport vositalari uchun — ushbu toifadagi transport vositalariga mo‘ljallangan haroratgacha yetkazilishi mumkinligini aniqlash uchun tekshiruv o‘tkaziladi.

47. Natijalar qoniqarli bo‘lgan taqdirda, ushbu transport vositalari dastlab belgilangan toifadagi izotermik transport vositalari sifatida uch yil muddatgacha bo‘lgan yangi davrda foydalanishda qolishi mumkin.

5-bob. Izotermik avtotransport vositalarining harfli tanish belgilariga qo‘yiladigan talablar

48. Izotermik avtotransport vositalari quyidagi harfli tanish belgilari bilan belgilanishi lozim:

IN — normal izolyatsiyali izotermik avtotransport vositalari;

IR — kuchaytirilgan izolyatsiyali izotermik avtotransport vositalari;

RNA — A toifadagi normal izolyatsiyali muzxona;

RRA — A toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali muzxona;

RRB — B toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali muzxona;

RRC — C toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali muzxona;

RND — D toifadagi normal izolyatsiyali muzxona;

RRD — D toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali muzxona;

FNA — A toifadagi normal izolyatsiyali refrijerator;

FRA — A toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijerator;

FRB — B toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijerator;

FRC — C toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijerator;

FND — D toifadagi normal izolyatsiyali refrijerator;

FRD — D toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijerator;

FRE — E toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijerator;

FRF — F toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali refrijerator;

CNA — A toifadagi normal izolyatsiyali isitiladigan izotermik avtotransport vositasi;

CRA — A toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali isitiladigan izotermik avtotransport vositasi;

CRB — V toifadagi kuchaytirilgan izolyatsiyali isitiladigan izotermik avtotransport vositasi.

49. Izotermik avtotransport vositalarining harfli tanish belgilari kuzov har ikki tashqi tarafining old tomoniga yaqin yuqori burchakda oq fonga ko‘k rangda lotin alifbosining bosh harflari bilan yozilishi va harflar balandligi 100 mm dan kam bo‘lmasligi lozim.

50. Maksimal vazni 3,5 tonnadan ortiq bo‘lmagan izotermik avtotransport vositalari uchun harflar balandligi 50 mm ni tashkil etishi mumkin.

51. Izotermik avtotransport vositalarining harfli tanish belgilari tagida SPS guvohnomasi amal qilishining tugash muddati (yil, oy) oq fonga ko‘k rangda arab raqamlari bilan yozilishi lozim. Raqamlar balandligi izotermik avtotransport vositalarining harfli tanish belgilari balandligining yarmiga teng bo‘lishi shart.

(1—3-ilovalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-apreldagi 277-soni qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2018-y., 09/18/277/1048-son)

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 32-soni, 401-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2018-y., 09/18/277/1048-son, 29.05.2018-y., 09/18/395/1282-son)